

MAFKURAVIY TAHDID TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNING ZAMONAVIY KO'RINISHLARI

Sardor Ashurov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada mafkuraviy tahdid tushunchasi ularninglarning turlari, hamda zamonaviy ko'rinishlari va jamiyat barqarorligiga ta'siri, ushbu tahdidlarga qarshi kurash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha fikrlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida G'arb va Sharq olimlarining ilmiy izlanishlari, qarashlari, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari o'rganildi. Maqolada mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlashda davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi, yoshlar ongini zararli g'oyalardan himoyalashda ma'rifiy va axborot siyosatining o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning tizimli va kompleks yondashuv asosida olib borilishi zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Mafkura, mafkuraviy tahdid, mafkuraviy xavfsizlik, axborot xurujlari, fuqarolik jamiyati, yoshlar siyosati, ma'naviy-ma'rifiy ishlar.

ПОНЯТИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ УГРОЗЫ, ЕЁ ВИДЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ФОРМЫ ПРОЯВЛЕНИЯ

Сардор Ашуров

независимый исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Аннотация. В данной научной статье проводится анализ понятия идеологической угрозы, её видов, современных форм проявления и их влияния на устойчивость общества, а также рассматриваются подходы к совершенствованию механизмов противодействия данным угрозам. В ходе исследования изучены научные труды и взгляды западных и восточных ученых, действующие нормативно-правовые документы, а также научные статьи отечественных и зарубежных исследователей. В статье обосновывается значимость взаимодействия государственных органов и институтов



гражданского общества в обеспечении идеологической безопасности, а также роль просветительской и информационной политики в защите сознания молодежи от деструктивных идей. Результаты исследования показывают необходимость применения системного и комплексного подхода в борьбе с идеологическими угрозами.

Ключевые слова. Идеология, идеологическая угроза, идеологическая безопасность, информационные атаки, гражданское общество, молодежная политика, духовно-просветительская деятельность.

THE CONCEPT OF IDEOLOGICAL THREATS, THEIR TYPES, AND CONTEMPORARY FORMS

Annotation. This scientific article analyzes the concept of ideological threats, their types, contemporary forms, and their impact on societal stability, as well as explores approaches to improving mechanisms for countering such threats. The study examines the scientific research and perspectives of Western and Eastern scholars, existing legal and regulatory frameworks, and scholarly articles by both domestic and international researchers. The article substantiates the importance of cooperation between state institutions and civil society in ensuring ideological security, as well as the role of educational and information policies in protecting youth consciousness from harmful ideas. The findings highlight the necessity of adopting a systematic and comprehensive approach in combating ideological threats.

Keywords. Ideology, ideological threat, ideological security, information attacks, civil society, youth policy, spiritual and educational activities.

Kirish.

Hozirgi kunda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning murakkabligi sharoitida inson ongiga maqsadli ta'sir o'tkazish, jamoatchilik fikrini boshqarish, siyosiy tizimning legitimligini mustahkamlash yoki uni izdan chiqarish, axloqiy tamoyillarni belgilash hamda mavjud siyosiy-g'oyaviy qadriyat va an'analarni shakllantirishda siyosiy mafkura strategik kommunikativ mexanizm sifatida qo'llanilmoqda.

Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi

kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir¹.

Asosiy qism

Mafkura tushunchasi ilk bor fanga XVIII asr oxirida Fransiyada A. Destutt de Treys tomonidan kiritilgan. Uning 1801-yilda nashr etilgan "Mafkura elementlari" asarida g'oyalarning kelib chiqishi, turlari va evolyutsiyasi, shuningdek, ularning umumiy qonuniyatlari haqida muhim fikrlar mavjud². Ayni o'sha davrda De Treysi Etyen Kondilxak bilan birgalikda g'oyalarning shakllanishining umumiy tamoyillari va inson bilimlari asosida fanni yaratishni o'rganib chiqdi. Liberalizm maktabining asoschilaridan biri Jon Lokkning "sensualistik epistemologiya"sining davomi sifatida De Treysi g'oyalar ta'limotini aniqlash uchun fanga mafkura³ atamasini qo'llay boshladi. Uning fikricha, bu ta'limot fan mazmunidan kelib chiqadigan g'oyalarning paydo bo'lishining umumiy qonuniyatlari sifatida talqin qilinadi. Bu ta'limot A. Destutt de Treysi tomonidan fan va jamoat hayotini boshqarishning asosiy tamoyillari bo'lib xizmat qilishi kerak edi. Shuning uchun olim mafkurani bilimlar tizimi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, Destut de Trasi tabiiy ma'lumotlar kabi "mafkura" ham aniq ilmiy bo'lishi kerak, deb hisoblagan

"Mafkura" ilmiy termini tez orada ijtimoiy fanning rivojlangan kichik sohasi sifatida rivojlanib, uning ichida o'nlab ilmiy maktablar va tadqiqot yo'nalishlari shakllandi. Keyinchalik bu tushuncha siyosiy va ijtimoiy nazariyaga aylandi hamda "g'oyalar tizimi" yoki "mafkuraviy tizim" sifatida tushuniladigan bo'ldi.

Zamonaviy siyosiy va ijtimoiy tafakkurda **mafkura** jamiyatning barqaror rivojlanishi, siyosiy tizimning legitimligi hamda ijtimoiy guruhlarning o'zaro munosabatini tartibga soluvchi muhim g'oyaviy-madaniy tizim sifatida talqin etiladi. N.M.Sirota o'zining "Jahon siyosatida mafkuralar"⁴ asarida mafkuraning mazkur ijtimoiy vazifalarini tizimli ravishda tasniflab, uning amaliy va nazariy o'lchamlarini kengroq yoritadi. Tadqiqotchi fikriga ko'ra, mafkura quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Bilish (kognitiv) funksiyasi. Jamiyatdagi hodisalar mohiyatini talqin etib, shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi;

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU., 2017. – B. 27.

² Антуан Дестют де Траси. Основы идеологии. М., Альма Матер, 2013. – 334 с.

³ Ideologiya – g'oya, logos - fan, ta'limot.

⁴ Сирота Н.М. Идеологии в мировой политике. Москва Ай Пи Ар Медиа 2024. – 187 с.

- Mobilizatsiya funksiyasi. Mafkura ijtimoiy subyektlarni — shaxslar, guruhlar va sinflarni — bir maqsad sari yo‘naltiruvchi konsolidatsiya kuchi sifatida namoyon bo‘lib, jamiyatni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiradi hamda siyosiy harakatlarga ruhiy-diniy, ma‘naviy asos yaratadi;

- Integratsiya funksiyasi. Siyosiy tizimning yaxlitligiga hissa qo‘shib, jamiyatning barqaror uyushuvini shakllantiradi;

- Mo‘tadillashtirish (kompensator) funksiyasi. Ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatiadi va jamiyatda konfliktlarning nazorat ostida qolishiga ko‘maklashadi

- Qonuniylashtiruvchi (legitimlashtiruvchi) funktsiya. Mavjud siyosiy tartibning davomiyligini asoslaydi.

Umuman olganda N.M.Sirota tomonidan ishlab chiqilgan mazkur tasnif mafkuraning faqat g‘oyalar majmuasi emas, balki **ijtimoiy boshqaruv, madaniy integratsiya va siyosiy mobilizatsiya tizimi** sifatidagi ko‘p qirrali mohiyatini yoritadi. Mafkura jamiyatning dunyoqarashini shakllantirishdan tortib siyosiy legitimlikka qadar bo‘lgan jarayonlarda markaziy o‘rin tutadi. Shu bilan birga, uning dogmatik asoslari mafkuraning barqarorligini ta‘minlash bilan birga, tanqidga nisbatan cheklovlar ham keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir guruh olimlar Hinich va Munger mafkurani **siyosiy nazariyalar** kontekstida tahlil qiladi. Ular mafkurani **saylovchilarning xulq-atvori va siyosiy kommunikatsiya modeliga integratsiyalangan tizimli vosita** sifatida ko‘radi. Mualliflar tanlov nazariyasining klassik modellaridan boshlanib, keyin esa mafkurani ushbu modelga integratsiya qiladi. Ular axborot yuklamasi va kommunikatsiya cheklovlari fundamentsiyasi asosida ko‘rsatadiki, saylovchilar aniq platforma pozitsiyalariga e‘tibor bermay, odamlar siyosiy simvollar orqali ifodalangan keng kontseptual ma‘noga ko‘ra qaror qabul qiladi⁵.

AQShlik nazariyotchi olim, Frensis Fukuyama o‘zining qarashlarida tarixni mafkuraviy kurashlar va raqobatlar jarayoni deya tushintiradi, uning fikricha insoniyat sivilizatsiyasi turli ijtimoiy qarashlar va siyosiy tizimlar, g‘oyalar hamda diniy qarashlar o‘rtasidagi **doimiy kurash** orqali oldinga siljigan. Bunda olim sovuq urushning yakunlanishi bilan SSSRning qulashini argument qilib ko‘rsatib, liberal demokratiya **boshqa mafkuralar ustidan g‘alaba qozonganligi va butun dunyo ayni g‘oyaga ergashishi lozimligini ta‘kidlaydi**⁶. Bu yerda “intiho” tariqasida u tarixni

⁵ M. Hinich, M. Munger, Ideology and the Theory of Political Choice, University of Michigan Press 1994.

⁶ Francis Fukuyama. The End of History and the Last Man.



urushlar hamda mafkuralar o'rtasidagi fundamental to'qnashuvlar nuqtai nazaridan ko'radi.

Qayd etish lozimki, har qanday ta'sirning ijobiy va salbiy taraflari bo'lgani kabi mafkuraviy ta'sirning ham ijobiy va salbiy oqibatlari mavjuddir. Jamiyatda mavjud mafkuraning zaifligi va yoki unga ishonchsizlikning ortishi sababidan begona bir qarash, g'oya, yod mafkuraning ta'siri kuchayishiga sharoit xosil bo'ladi. Aslini olganda tahdidlarning eng xavflisi bu mafkuraviy tahdid hisoblanib, uning chegaris va o'lchovi bo'lmaydi. Shu sabab uni qay tarzda bartaraf etish borasidagi savollar kelib chiqadi.

Muhokama va tahlil

Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi. Dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston ham bunday tahdidlardan chetda qolgani yo'q. Mamlakatda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda fuqarolar ongi va faoliyatiga siyosiy ekstremizm, diniy va fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, ekologik muammolar "ommaviy madaniyat" tajovuzi va boshqalar buning yaqqol dalili. Bugungi kunda yuqorida sanab o'tilgan tahdidlarga qo'shimcha tarzda OAV, internet, ijtimoiy tarmoqlar tahdidi, sun'iy intellekt va boshqalar mafkuraviy tahdid shaklida namoyon bo'layotir. Ayniqsa, o'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasi bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi⁷.

"Tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa,

⁷ Mafkuraviy ta'sir. Mafkuraviy tahdid. Mafkuraviy tajovuz. <https://oyina.uz/uz/teahause/1852>

yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning “kirib kelishi” tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim⁸.

Tahdid – inson, jamiyat va davlat hayoti hamda faoliyatiga nisbatan muayyan davr mobaynida aniq maqsadga yo‘naltirilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va umumsayyoraviy salbiy omillarning tajovuzi tufayli aniq makon va zamonda vujudga keladigan xavf-xatar shakli, muayyan beqaror siyosiy-ijtimoiy va tarixiy vaziyatni ifodalovchi tushuncha. Tahdidlar turli-tuman: ichki, tashqi, makon nuqtai nazaridan esa uzoq va yaqin bo‘lishi mumkin. So‘nggi yillardagi voqealar shundan guvohlik beradiki, ularni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, demografik, ma‘naviy, mafkuraviy, harbiy, tabiiy-iqlimiy tahdidlarga ajratib, tahlil etish mumkin.

Umuman olib qaralganda “mafkuraviy tahdid” atamasi jamiyatda mavjud bo‘lgan g‘oyaviy birlik, ma‘naviy qadriyatlar, milliy ong va tafakkurga qarshi qaratilgan har qanday tashqi yoki ichki bosimni anglatadi. U insonning dunyoqarashi, e‘tiqodi, qadriyatlarga munosabati orqali ongini egallashni maqsad qiladi. Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar ko‘pincha axborot maydoni, internet tarmoqlari, madaniy mahsulotlar va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalmoqda. Hozirgi postindustrial jamiyatlarda information makonlarning shiddat bilan rivojlanishi butun dunyoda mafkuraviy taxdidlarni yangi turlarini keltitrib chiqarmoqda va keng tarqalishini tezlashtirmoqda.

1. Axborot tahdidi – feyk xabarlar, manipulyativ axborotlar orqali ongni boshqarish.

2. Madaniy tahdid – ommaviy madaniyat, musiqiy va kinomahsulotlar orqali milliy qadriyatlarni so‘ndirish.

3. Diniy-ekstremistik tahdid – din nomidan siyosiy maqsadlarda foydalanish.

4. Siyosiy-ideologik tahdid – turli siyosiy oqimlar orqali milliy birlikni zaiflashtirish.

5. Axloqiy tahdid – befarqlik, begonalashuv, individualizm va iste‘molchilikni targ‘ib etish singarilarni o‘z ichiga oladi.

Mafkuraviy tahdid – jamiyat, davlat, yoki xalq, millat, elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmui hisoblanadi. Mafkuraviy tahdid – ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy

⁸ Пахрутдинов.Ш. «Тahдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. – Б. 7-8.

kuch o‘z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo‘rqituv, zo‘rlik yo‘li bilan boshqalarga singdirishidir.

Mafkuraviy tahdid masalalarini o‘rgangan mahalliy olimalarimizdan G. Rafiqova mafkuraviy tahdid insoniyat duch kelayotgan boshqa xavf-xatarlardan sezilarli darajada farq qilib, mafkuraviy tahdidlarning asosiy maqsadi, ularning mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlarida yoritadi. Olima fikricha, mafkuraviy tahdidning maqsadi muayyan mamlakatlar va jamoalarga ta'sir o‘tkazish, yoshlar ongini mafkuraviy jihatdan zaiflashtirish va hukmronlik qilish, ularni o‘z dunyoqarashiga bo‘ysundirish ekanligi tushuniladi. Mafkuraviy tahdid turli usul va vositalar orqali amalga oshiriladi. Xususan, u ommaviy axborot vositalaridan (internet, radio, televideniye, matbuot va boshqalar) foydalanadi, turli adabiyotlar va varaqalar tarqatadi, nutqlar, intervyular va munozaralar tashkil qiladi, san‘at asarlarini nashr etadi va zamonaviy texnologiyalardan foydalanadi. Eng xavfli jihati sifatida harbiy, iqtisodiy va siyosiy tahdidlarni oldindan ko‘ra bilish va oldini olish mumkin bo‘lsa-da, mafkuraviy tahdidlarning ta’siri va oqibatlarini tezda aniqlash qiyin ekanligini keltirib o‘tadi⁹.

Yana bir mahalliy olim G. Ro‘ziyeva mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etishda siyosiy boshqaruv, jamoat institutlari, axborot siyosati va profilaktika tizimlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, ushbu jarayonning institutsional va normativ asoslarini chuqur ochib beradi¹⁰. Ro‘ziyeva tomonidan AQSh, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy va Singapur kabi mamlakatlarning mafkuraviy xavfsizlik sohasidagi siyosiy mexanizmlari o‘rganilib, ularning O‘zbekiston sharoitiga mos jihatlari metodologik asosda tahlil qilingan. Olima yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi mafkuraviy omillar: psixologik, ijtimoiy, madaniy, raqamli, axborot singari ko‘rinishda bo‘lishiga ko‘ra turli yosh guruhlari uchun moslashtirilgan “Mafkuraviy tarbiya” texnologiyalari va monitoring mexanizmlarini takomillashtirishni, bunda ichki ishlar organlari, ta’lim muassasalari, oila, mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish zaruratini asoslab beradi¹¹.

Mafkuraviy tahdidlarning raqamli makondagi transformatsiyasini aniqlash va baholashda Ilhom Suvanovning tadqiqotlari mazkur izlanishimizda metodik asos

⁹ Рафиқова, Г.В. Понятие об идеологических угрозах и их конкретные особенности / Г. В. Рафиқова. Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. № 3 (107). – С. 750-752.

¹⁰ Ro‘ziyeva G. Jamoat xavfsizligini ta’minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexnizmlarini takomillashtirish // siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T. 2025. – 60 b.

¹¹ Ro‘ziyeva G.S. “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish” // “Tadqiqotlar” ilmiy-metodik jurnali. 2025-iyun. 2-to‘plam. 64-son №1/59. – B. 139.

bo‘lib xizmat qildi. I.Suvanov o‘z tadqiqotida axborot jamiyati sharoitida yuzaga kelayotgan xavflarni – **axborot tengsizligi, ong manipulyatsiyasi, jamiyatning virtualizatsiyasi, kiber kasalliklar, axborot jinoyatchiligi, axborot ekstremizmi, axborot terrorizmi va ma’lumot uchun jang** kabi omillarni tizimli tahlil qilib, ularning barchasini mafkuraviy tahdidlarning yangi shakllari sifatida baholaydi¹².

Muallif mafkuraviy tahdidlarni shartli ravishda ichki va tashqi tahdidlarga ajratadi:

1. Tashqi tahdidlar deb buzg‘unchi kuchlarning mamlakatga tashqaridan kirib kelgan holda uning ijtimoiy tuzilmalarini yo‘q qilishga, xalqni ma’naviy-mafkuraviy jihatdan parokandalikka uchratib, o‘zlariga tobe qilishga qaratilgan xurujlarni kiritadi.

2. Ichki tahdidlarga esa, “o‘z vataniga, vatandoshiga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, hatti-harakatlarga aytiladi, odatda, nosog‘lom mahalliychilik, yonidagilarni mensimaslik, vatandoshlarning haqiga xiyonat qilish, “ma’naviy emigratsiya” (baxtini o‘z vatanidan emas, o‘zga joylardan qidirish), odamlarni boy kambag‘alga bo‘lib muomala qilish, poraxo‘rlik va korrupsiya, qo‘pollik, ashaddiy millatchilik, merkantilizm - ortiqcha mol-dunyoga hirs qo‘yish, befarqlik va loqaydlik singari illatlarni kiritadi¹³.

Shuningdek, muallifning axborot xurujlarining psixologik, kommunikativ va texnologik asoslarini ochib beruvchi ilmiy yondashuvlari fuqarolarning siyosiy ongiga tashqi ta’sirni aniqlash, baholash va tahlil qilishning ilmiy mezonlarini belgilash borasidagi xulosalari ahamiyatlidir.

O‘zbekistonda mafkuraviy xavfsizlik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va g‘oyaviy tahdidlarga qarshi kurashish masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etgan olimlardan biri M.Toshbekovanning izlanishlari sanaladi. Muallif ishlarida ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlarning mafkuraviy jarayonlarga ta’siri, jamiyatda g‘oyaviy bo‘shliqning yuzaga kelish omillari, “ommaviy madaniyat” va yot mafkuraviy oqimlar ta’sirining kuchayishi, shuningdek yoshlar mafkuraviy immunitetini shakllantirishning samarali mexanizmlari chuqur ilmiy tahlil qilingan¹⁴.

¹² Suvanov I. A. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari. Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati – T. 2024. – 79 b.

¹³ O‘sha manbaga qaralsin

¹⁴ Toshbekova M.X. Globallashuv jarayonlarda mafkuraviy tahdidlar//Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent - Xalqaro Islom Akademiyasi – Toshkent: Ma’naviyat, 2019, – B. 180-183;

Zamonaviy geosiyosiy jarayonlar, axborot oqimlari ko'payishi va jamiyat ongining tezkor o'zgarishi sharoitida **mafkuraviy xavfsizlik** masalasining muhimligini asoslab bergan mahalliy olimlardan biri K.Avazov bo'lib, "**mafkuraviy tahdidlar – ijtimoiy xavfsizlik – barqarorlik**" uchligini birgalikda o'rganadi. Muallif xavfsizlikni faqat harbiy yoki siyosiy jihatdan emas, balki **mafkuraviy-psixologik** omillar bilan ham bog'liq tizimli holat sifatida talqin qiladi¹⁵.

Yana bir guruh olimlar J.S.Ramatov, M.I.Raximova, M.N. Hasanovlar bu borada ma'naviy tahdidlarning uch turini keltiradi. Mafkuraviy tahdidlar, g'oyaviy tahdidlar hamda informatsion tahdidlar. Shundan mafkuraviy tahdidni ijtimoiy siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z mafaatini ifodalovchi o'z mafkurasini qo'rqituv, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish sifatida ta'riflaydi. Mafkuraviy tahdidlar jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf – xatarlar majmuasi hamdir. Hozirgi davrda O'zbekiston ham bunday tahdidlardan chetda qolayotgani yo'q. Fuqarolar ongida bu siyosiy ekstremizm, diniy fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mafkuraviy tahdidlar shaklida namoyon bo'layotganligini ta'kidlaydilar. Ayniqsa, o'rta asr arab xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy – g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasini bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik, uchun katta xavf bo'lib turibdi¹⁶.

Globalashuv sharoitida milliy davlat suverenitetiga tahdidlarning namoyon bo'lishi masalalarini tadqiq etgan olim S.Hamrayev milliy davlat suverenitetiga tahdidlarni ichki va tashqi tahdidlarga ajratadi. Xususan, ichki tahdidlar deganda, avvalo, muayyan milliy davlat hududida shakllanib, shu davlatning suverenitetiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va turli salbiy oqibatlariga olib keladigan beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat tushuniladi. Milliy davlat suverenitetiga ichki tahdidlar sifatida: loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, agressiv millatchilik, irqchilik, korrupsiya, egoizm va individualizm, huquqiy nigilizm, anarxizm, ijtimoiy-moddiy tabaqalanishning kuchayishi, separatizm kabilarni kiritish mumkin.

Toshbekova M.X. Современные правовые основы борьбы против духовно-идеологических угроз // Вопросы политологии ISSN 2225-8922. – Москва, № 4, 2020. – С. 2823-2828.

¹⁵ Авазов К. Идеологические угрозы современности, безопасность и стабильность в обществе и их взаимосвязь //Национальная безопасность и стратегическое планирование Выпуск 4 (12), 2015. – С. 42-47.

¹⁶ Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий кадрятларнинг ўрни.



Milliy davlat suverenitetiga tashqi tahdidlar deganda, muayyan milliy davlat hududidan tashqarida shakllanib, biroq shu davlatning suverenitetiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan va turli salbiy oqibatlariga olib keladigan beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyat tushuniladi. Milliy davlat suverenitetiga tashqi tahdidlar: terrorizm, buyuk davlatchilik g'oyasi, yohud imperialistik ambitsiya, "ommaviy madaniyat", kosmopolitizm, kiberjinoyatchilik, missionerlik va prozelitizm, noan'anaviy diniy oqimlarning kuchayishi, mintaqaviy beqarorlik, yadro urushlar xavfning mavjudligi, ekstremizm kabilarni kiritadi. Olim chki va tashqi tahdidlarning hozirgi zamon uchun asosiy yechimlaridan biri bu milliy davlatlarning milliy g'oya asosidagi ta'lim-tarbiya tizimidir, degan xulosaga keladi¹⁷.

Xulosalar

Olib borilgan nazariy tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, "mafkuraviy tahdid" fenomeni zamonaviy siyosiy jarayonlarning tasodifiy yoki ikkilamchi hodisasi emas, balki ijtimoiy tizimning ma'naviy-g'oyaviy asoslariga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Mafkura tarixiy-evolyutsion jihatdan bilimlar tizimi, sinfiy ong ifodasi, normativ-kontseptual tuzilma hamda siyosiy kommunikatsiya modeli elementi sifatida talqin etib kelingani uning ko'p qatlamli ontologik tabiatini ko'rsatadi. Aynan shu ko'p qatlamlilik mafkuraviy tahdidlarning ham murakkab, ko'p darajali va yashirin mexanizmlar orqali amal qilishini shartlaydi.

Shuningdek, nazariy asoslarga ko'ra muayyan jamiyatda amal qilayotgan legitim g'oyaviy tizimning kognitiv, integrativ va legitimlashtiruvchi funksiyalarini izdan chiqarishga qaratilgan tashqi yoki ichki g'oyaviy bosimdir. Zotan bunday bosim natijasida shaxs dunyoqarashida nomutanosiblik, ijtimoiy o'zlikda yo'qotishlar, siyosiy ongda esa noaniqlik va beqarorlikni yuzaga keltiradi. Strukturaviy-funksional yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, mafkuraviy tahdid ijtimoiy-siyosiy tizimning qadriyatlar konsensusi buzilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu holat jamiyatni integratsiyalovchi ma'naviy mexanizmlarning zaiflashuviga olib keladi.

Qolaversa globallashuv va raqamli kommunikatsiya makonining kengayishi mafkuraviy tahdidlarning shakl va usullarini tubdan o'zgartirdi. Endilikda tahdid ochiq ideologik qarama-qarshilik shaklida emas, balki axborot oqimlari, madaniy mahsulotlar, vizual kontent, tarmoqli kommunikatsiya va algoritmik seleksiya orqali ongga singdirilmoqda. Bu jarayon siyosiy kommunikatsiya nazariyalarida

¹⁷ Hamrayev S. Globallashuv sharoitida milliy davlat suverenitetiga tahdidlarning namoyon bo'lishi. – B. 295-297.



ta'kidlanadigan simvolik ta'sir, framing va narrativ konstruktsiya mexanizmlari bilan izohlanadi. Natijada mafkuraviy tahdid zo'ravonlikka emas, ma'no ishlab chiqarish ustidan nazoratga asoslangan yangi tipdagi g'oyaviy hukmronlik shakliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU., 2017. – B. 27.
2. Антуан Дестют де Траси. Основы идеологии. М., Альма Матер, 2013. – 334 с.
3. Ideologiya – g'oya, logos - fan, ta'limot.
4. Сирота Н.М. Идеологии в мировой политике. Москва Ай Пи Ар Медиа 2024. – 187 с.
5. M. Hinich, M. Munger, Ideology and the Theory of Political Choice, University of Michigan Press 1994.
6. Francis Fukuyama. The End of History and the Last Man.
7. Mafkuraviy ta'sir. Mafkuraviy tahdid. Mafkuraviy tajovuz. <https://oyina.uz/uz/teahause/1852>
8. Пахрутдинов.Ш.«Тахдид» тушунчаси: назария ва амалиёт. Т.: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998. – Б. 7-8.
9. Рафиқова, Г.В. Понятие об идеологических угрозах и их конкретные особенности / Г. В. Рафиқова. Текст : непосредственный // Молодой ученый. – 2016. № 3 (107). – С. 750-752.
10. Ro'ziyeva G. Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning siyosiy mexnizmlarini takomillashtirish // siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T. 2025. – 60 b.
11. Ro'ziyeva G.S. “Jamoat xavfsizligini ta'minlashda mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish” // “Tadqiqotlar” ilmiy-metodik jurnali. 2025-iyun. 2-to'plam. 64-son №1/59. – B. 139.
12. Suvanov I. A. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari. Falsafa fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi avtoreferati – T. 2024. – 79 b.
13. O'sha manbaga qaralsin
14. Toshbekova M.X. Globallashuv jarayonlarda mafkuraviy tahdidlar//Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent - Xalqaro Islom Akademiyasi – Toshkent: Ma'naviyat, 2019, –



В. 180-183; Toshbekova M.X. Современные правовые основы борьбы против духовно-идеологических угроз // Вопросы политологии ISSN 2225-8922. – Москва, № 4, 2020.– С. 2823-2828.

15. Авазов К. Идеологические угрозы современности, безопасность и стабильность в обществе и их взаимосвязь //Национальная безопасность и стратегическое планирование Выпуск 4 (12), 2015. – С. 42-47.

16. Раматов Ж.С., Рахимова М.И., Ҳасанов М.Н. Мафкуравий таҳдидларни олдини олишда исломий кадрятларнинг ўрни.

17. Hamrayev S. Globallashuv sharoitida milliy davlat suverenitetiga tahdidlarning namoyon bo‘lishi. – В. 295-297.